



“DEVONI ASAD”NING MATNIY TADQIQI VA TAHLILI

Sohiba Umarova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206890>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida yetishib chiqqan shahzoda shoir Sayyid Asad to'ra Otajon to'ra o'g'li hayoti va uning “Devoni Asad”dagi lirik she'rlari haqida so'z yuritiladi. Bugungi kungacha shoirning devoni matni tadqiq va tahlili etilmagan. “Devoni Asad”ning qo'lyozma va toshbosma nusxalari tadqiqi o'zbek adabiyotining ajralmas qismi bo'lgan Xorazm adabiy muhiti haqidagi mulohazalarni yanada to'ldiradi.

Kalit so'zlar: Xorazm, adabiy muhit, devonchilik, “Devoni Asal”, g'azal, qasida.

Sayyid Asad to'ra Otajon to'ra o'g'li shahzoda shoir bo'lib, uning lirik she'rlari bizgacha yetib kelgan devonida jamlangan. Bobojon Tarroh –Xodim shunday yozadi: “Sayyid Asad to'ra eski maktabni to'liq bitkargan. Lokin madrasa ta'limotini o'zining bobosi Xo'ja qozidan o'qug'on bo'lsa ham to'luq o'qumag'on. Forsiydan ham o'rtacha, shoirligi ham o'rtacha bo'lg'on”[1, 59], degan ma'lumotlarni beradi.

Tabibiy masnaviysida G'oziy va Asadlar haqida ketma-ket ta'rifini keltiradi:

Biridur Sayyid G'oziy donish asar,

Ki ko'ngli erur koni fazlu hunar.

Birisi dog'i keldi Sayyid Asad,

Jahonda erur olim neku bad...

Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilari tarjimai hollari” tazkirasida Sayyid Asad to'raning ko'rinishi va fe'l-atvori haqida shunday yozilgan: “Asad – ko'sa, qoq chakka, olaqaroq chechak tobli, uzun qomatli, suxandon, shirinso'zli kishi bo'lib, otasi Said Ahmad to'ra Asadga marhamat nazari bilan qaramay, kam iltifot qilg'on sababli, Asad amakisi Muhammadrahimxong'a o'z ahvolotlaridin shikva qilib, “Asad” taxallusi bilan ash'orlar yozib, arz etadur. Xong'a uning yozg'on ash'orlari maq'uli tab' bo'lg'onlig'idin Asadga she'rlar mashq qilishni farmon qiladur. Asad dog'i amakisi Feruzg'a payravona har xil she'rlar yozib, turadur. “Devoni Asad” ismida bir devon ham yozadur. Shuning bilan Asad mahoratlig' shoirlardan bo'lib, juda ham tez fahm va xushxotir bo'ladur”[2, 27-varaq].

Sayyid Asad to'raning o'sha davr ijtimoiy-madaniy hayotida faol bo'lish, ma'rifatparvar insonlar qatorida bo'lishga intilgan. Sayyid Asad to'raning shaxsiy kutubxonasi bo'lgan va kitoblariga maxsus muhr bosib, kutubxonasini kengaytirgan. “رباعيات حضرت پهلوان ولی رحمت الله عليه” (*Ruboiiyoti hazrati Pahlavon Vali*)



rahmatiullohi oliyatun), – deb boshlanuvchi qo‘lyozmaning birinchi betida katta ramkaning to‘rtta burchagida ruboiylar yozilgan va o‘rtasiga muhr bosilgan bo‘lib, unda quyidagi so‘zlar yozilgan: “سَيِّدِ اسْعَدِ تَوْرَه ابْنِ سَيِّدِ اَحْمَدِ تَوْرَه”. (*Sayyid Asad to‘ra ibn Sayyid Ahmad to‘ra*).

Sayyid Asad to‘ra otasi Otajon to‘raning qabri yoniga daft etilgan.

“Devoni Asad”ning 1121 raqamli qo‘lyozmasi tavsifi

Qo‘lyozma muqovasida asar nomi “ديوان اسد” deb ko‘rsatilgan.

ديوان اسد (“Devoni Asad”) – o‘zbekcha, akzis raqami 1121 bo‘lgan, to‘q binafsha rangdagi karton qog‘oz bilan muqovalangan, muqovasi to‘q ko‘k rangdagi mato bilan o‘rtasidan mustahkam bo‘lishi uchun yelimlangan, muqovaning chetki qismlari biroz uringan, rus fabrika qog‘ozida yozilgan, kitob varaqlarining pastki qismi uringan, varaqlar soni 73, sahifalar arab sonida 139 gacha raqamlangan, kitobning birinchi va ikkinchi varog‘i forzas bo‘sh qolgan, matn ustunlar soni ikkita, satrlar soni 18, 19, 20 tartibida yozilgan, matn hech qanday ramkaga olinmagan, asosiy matndan tashqari hoshiyada ham she‘rlar berilgan, yozuvi nastaliq, sarlavhalar qizil, asosiy matn qora siyohda yozilgan, poygir qo‘yilgan, kotib tomonidan muhr, bezaklar qo‘yilmagan, kotibi Bobojon Tarroh Xodim, kitobning 4b-varog‘ida O‘zR FA Sharq qo‘lyozmalari instituti muhri bosilgan. Ikki varaq nadzas, ya‘ni bo‘sh qolgan.

Qo‘lyozma muqovasida asar nomi “ديوان اسد” deb ko‘rsatilgan. 1-sahifada basmala “*Bismillohi rohmoni rahim*”. Keyin ta‘lifi kitob shunday beriladi: “ديوان سَيِّدِ اسْعَدِ تَوْرَه ابْنِ اَتَه جَان تَوْرَه فَرْدَوْسِ اَشْيَانِ سَيِّدِ مُحَمَّدِ خَانِ مَرْحُومِي”.

(*Devoni Sayyid Asad to‘ra ibn Otajon to‘ra firdavsi oshyon Sayyid Muhammadxon marhumiy*).

Kolofoni: “زل سبحان خليفه الرحمان يعنى ابو مظفر بن منصور ابول الغازى سَيِّدِ مُحَمَّدِ رَحِيمِ بهادرخان ثانی دام دوله نینگ فرمان عالی لاری بیلان اوشبو دیوان اسدنی بیر مینگ و اوچ یوز داغی بیگیرمه آلتیلانجی بیل باباجان مخدوم دیوان طراه به متخلص خادم ابن عبد "العزیز مخدوم یازیب اتمام سرحدیغه یتکوردی”

(*Zili subhon xalifat rahmon ya‘ni, Abu Muzaffar bin Mansur Abud G‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy doma davlatahuning farmoni oliylari bilan ushbu “Devoni Asad”ni bir ming uch yuz dog‘i 26lanchi yil Bobojon Maxdum devon Tarroh ba mutaxallusi Xodim ibn Abduaziz maxdum yozib itmomi sarhadig‘a yetkurdi. Valahi alam fil sababdin*).

“Basmala”dan keyin: “*Devoni Sayyid Asad to‘ra ibn Otajon to‘ra ibn firdavsoshiyon Sayyid Muhammadxon marhumiy*”, deb berilgan.

Boshlanishi:

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



*Zihi Qodir, ki sun'ingdin bo'lub xayrul-bashar paydo,
Bihori qudrating ichra necha turluk guha paydo.*

Oxiri: (ruboiy)

*Shoho karam aylading, chu markab qulluq,
Farzdur manga qilmoq har kunu shab qulluq.
Dargohingi tufrog'in ko'zimga surtib,
Qilmoq manga merosdur 'an ab qulluq.*

“Devoni Asad”dagi she’rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma’lum bo’ladi:

debocha berilmagan

g‘azallar: 292 ta (asosiy matnda 1a-58a varoqlar), 87 ta g‘azal (hoshiyada 8a-54a varaqlar),

muxammaslar: 14 ta (54a-65b varaqlar),

musaddas: 6 ta (65b-69a varaqlar),

qasida: 2ta (69a-70a varaqlar),

ruboiylar: 3 ta (asosiy matnda 1ta, sahifa hoshiyasida 2ta (70b varaq). Ushbu manba “Devoni Asad”ning boshqa manbalariga qaraganda to’liq shakli deyish mumkin. Asad she’rlari asosan ishqiy mavzuda bo’lib, an’ana va qadriyatlarimiz davomi bo’ladi. Jumladan:

Qilurman nolalar qumridek ul navras niholim bor,

Fig‘onim bulbuloso ki gulgun jamolim bor.

Agarchi qomatim dol o‘lsa tong yo‘q ishq aro ey do‘st,

Ki har mavzun qad va jallodko‘z qoshi hilolim bor.

Oning erkan sitam oshiqg‘a qilmoq ko‘nglidin dom,

Mani ko‘nglimda ersa lutfini ko‘rmak xayolimdur.

Bo‘lubman mehnat ila Vomiqu Farhodu Majnundek,

Ki ul Uzrovash ham Layliyu Shirin misolim bor.

Fig‘onkim har nafasda yuz tuman savdo solib boshig‘a,

Sochi andishasida sarchashmai obi zilolim bor.

Tabibo tarki doru qilmoq etkil sen ham ey Voiz,

Nasihati tarkin etkil ne bilursankim na holim bor.

Hamisha shoddursan ey Asad altofidin oni,

Ki taxti Xivaq uzra ul shahi zi e’tidolim bor.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



“Devoni Asad”ning matniy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish hamda joriy yozuvda nashrga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бобожон Тарроҳ - Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. – Т.: “Tafakkur qanoti”, 2011.
2. Лаффасий. Хива шоир ва адабиётчилари таржимаи ҳоллари. ЎзФА ШИ Қўлғезмалар фонди. Инв.№ 9494.
3. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Akademnashr, 2015.
4. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8977832395690647008&btnI=1&hl=ru>
5. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=5674612670673246381&btnI=1&hl=ru>